

O'QUVCHILARNING MUSTAQIL FIKRLASH JARAYONLARINING DINAMIKASI

Zilola Farxod qizi Abdalimova

Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o'qituvchining o'quvchilarni mustaqil fikrlashida mustaqil yondashuv hvmnda har bir fan sohasidan kelib chiqib turli psixologik va pedagogik yondashuv asosida o'quvchilarni bilim olishida kerakli bo'lgan metodlar va psixologik dinamikasi ochib berilgan.

Kalit so'zlar: laboratoriya, produktiv, mustaqil topshiriqlar, referat, xotira, diskursiv, verbal, amaliy, nazariy, ixtiyoriy-ixtiyorsiz, konkret, abstrakt, realistik, autistik, intuitiv, diskursiv, dialektik, reproduktiv, produktiv-ijodiy, vizual, fazoviy

ABSTRACT

In this article, the methods and psychological dynamics necessary for students' learning based on different psychological and pedagogical approaches based on the independent approach of the teacher to the students' independent thinking based on each subject area are revealed.

Keywords: laboratory, productive, independent assignments, abstract, memory, discursive, verbal, practical, theoretical, voluntary-involuntary, concrete, abstract, realistic, autistic, intuitive, discursive, dialectical, reproductive, productive-creative, visual, spatial

KIRISH

O'quvchilar tafakkuri, asosan, o'qish, amaliy mashg'ulot va mustaqil bilim olish faoliyatlarida jadal va uzluksiz ravishda rivojlanadi. Goho ma'ruza jarayoni ulardan *reproduktiv (o'zlashtirilgan bilimlarga asoslanuvchi) tafakkurni* taqozo etsa ham, lekin *mustaqil topshiriqlar, laboratoriya darslari produktiv (ijodiy) fikr yuritish* faoliyatini talab qiladi. Har ikkala ta'lim shakli ham o'quvchilar aqliy mehnati, maqsadga yo'naltirilgan va muvofiqlashtirilgan diqqati yordami bilan amalga oshadi.

Umumiy o'rta maktabdagi mustaqil ishlarning barchasi: *konspekt tuzish, referat ishlari* o'quvchidan mustaqillikni, ijodiy yondashishni, (kreativlikni) muammoli holatni, murakkab pedagogik-psixologik vaziyatni hal qilishni taqozo qiladi. Davlat ta'lim standarti va o'quv rejasida ko'rsatilgan, dasturda ko'zda tutilgan materiallar va ilmiy

ma'lumotlarni o'zlashtirish bilim-saviyani kengaytirish bilan qanoat hosil qilmasdan, balki ularni tushunish, anglab yetishni talab qiladi, bu esa bevosita tafakkurning funksiyasidir. Xotira bisotidagi bilimlarni izchil ravishda tartibga keltirish, esga tushirish, ular ichidan eng muhim jihatlarni ajratish, o'zaro taqqoslash, turkumlarga kiritish, umumlashtirish bilish jarayonining aqliy yo'li bilan, ya'ni tafakkur yordami bilan amalga oshiriladi.

Ijtimoiy gumanitar va tabiiy fanlarni o'rganish davomida moddiy borliqdagi narsa va hodisalar o'rtasidagi murakkab ichki bog'lanishlar, aloqalar va ijtimoiy turmush qonuniyatlari yuzasidan chuqur nazariy metodologik, ilmiy-uslubiy xususiyatdagi bilimlar o'zlashtiriladi. Ana shu fan asoslarini o'zlashtirish davomida **diskursiv** (*lot. ijodiyot va haqiqat mezonini uchun bahs yuzasidan mulohaza yuritish*) tafakkur turi O'quvchi uchun omilkor aql-zakovat quroli vazifasini bajaradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Umumiy o'rta maktab ta'limi jarayonida fikr yuritish operatsiyalaridan unumli (*analiz, sintez, taqqoslash, konkretlashtirish, mavhumlashtirish, klassifikatsiyalash, sistemalashtirish, umumlashtirish*) foydalanish evaziga har qanday murakkab bilimlarni egallash imkoniyati vujudga keladi. O'quvchilar tafakkur shakllari (*tushuncha, hukm, xulosa chiqarish*)ning funksional va operatsional jihatlari bilan yaqindan tanishadilar, shuningdek, ulardan mustaqil foydalanish uchun barcha iptellektual rezervlarini (aqliy zaxiralarini) ishga solishga harakat qiladilar. *Hukm chiqarish*ning barcha (yakka, xususiy, umumiy, ziddiyatli, faraziy, inkor) ko'rinishlardan o'quv va mustaqil bilim olish faoliyatlarida foydalanish shart-sharoitlari tug'iladi. *Xulosa chiqarish*ning *induktiv* (*xususiydan umumiyga fikrning yo'nalganligi*) va *deduktiv* (*umumiydan xususiy hollarga fikrning qaratilganligi*) yo'llaridan muayyan tarzda bilish faoliyatida qo'llashga intiladilar. *Tushunchalar* (*yakka, xususiy, umumiy, yakqol, mavhum, to'planma*) mohiyatini anglagan holda ma'lumotlarni egallash bilimlarning barqarorligini ta'minlaydi. Bu narsalarning barchasi tafakkurni rivojlantirishga o'z ta'sirini o'tkazadi.

Umumiy o'rta ta'lim uzluksiz ravishda ijodiy tafakkurni talab qiladigan, muammoli xususiyatdagi topshiriq va masalalar tizimidan iboratdir. Har bir ma'ruza, seminar mashg'uloti, mustaqil topshiriqlar, hatto laboratoriya ishlari ham muammoli vaziyat, holatni tarkibiy qismlaridan tuzilgan bo'ladi. Ularni hal qilish (*echish, bajarish*) ijodiy izlanishni vujudga keltiradi, tafakkur va ularning turlarini (*ko'rgazmali, harakat, ko'rgazmali-obrazli, so'z-mantiq. Verbal, amaliy, nazariy, ixtiyoriy-ixtiyorsiz, konkret, abstrakt, realistik, autistik, intuitiv, diskursiv, dialektik, reproduktiv, produktiv-*

ijodiy, vizual, fazoviy) kamolot sari yetaklaydi. Chunki muammoli holatgacha bo‘lgan davr, muammoli vaziyat, muammoli vaziyatdan keyingi aqliy jarayonlar ham O‘quvchidan ijodiy qidiruv, tadqiqot faoliyatini taqozo etadi. Topshiriqni mustaqil bajarish O‘quvchilardan tafakkur operatsiyalari (*analiz, sintez, taqqoslash, solishtirish, yaqqollash, mavhumlashtirish, guruhlash, turkumlash, umumlashtirish, sistemalashtirish*) va shakllaridan (*tushuncha, hukm, xulosa chiqarishdan*) foydalanishni talab qiladi.

NATIJALAR

O‘quvchilarni o‘quv faoliyati yoki ta’limiy usullar bilan tanishtirish tafakkur rivojida alohida ahamiyat kasb etadi. Jumladan, tushunchalarga (holatlarga) turli nuqtai nazardan qarash usulini O‘quvchilarda tarkib toptirish va uni sharoitga (vaziyatga) ko‘chirishga o‘rgatish yuqori ko‘rsatkichlar beradi. Shuni alohida ta’kidlab o‘tish kerakki, odatda usullarning ko‘chishini “*birdaniga*”, *asta-sekin*, “*buzib-tuzatib*”, qayta qurish, tarkibini yangidan tuzish, ko‘rgazmali materialdan matnli (mantiqiy) materialga o‘tishi kabi ko‘rinishlari mavjuddir. O‘quvchilarda o‘quv faoliyatining usulini tarkib toptirish quyidagicha amalga oshiriladi va muayyan qoidalar asosida olib boriladi:

– hamkorlik tushunchasiga turli nuqtai-nazardan qarash mumkin, chunonchi, u faoliyat turi, do‘stona aloqa o‘rnatish, muloqot, muomalaga kirishish, umumiy xatti-harakatlar yig‘indisi, o‘quv faoliyatining shakli, o‘qituvchi bilan O‘quvchi harakati, bitim, ijodiy tajriba almashish va hokazo.

Mazkur o‘quv faoliyati usulini mustaqil topshiriqni bajarishga, ya’ni “*faoliyat*”, “*individual faoliyat*”, “*ijtimoiy faoliyat*”, “*guruhiy faoliyat*” kabi psixologik tushunchalar mohiyatini ochishga ko‘chirish mumkin. Psixologiya fanida ko‘chishning turlari to‘g‘risida chet el va sobiq Ittifoq davridagi psixologiyada birmuncha ma’lumotlar mavjud.

Xotira tushunchasini turli nuqtai nazardan qarash mumkin, chunonchi, u bilish jarayoni, *produktiv* yoki *reproduktiv mnemik* (*lot. – xotira*) faoliyat, *amaliyotda zarur bilimlar majmuasi*, *xotira – bu ko‘nikma, malaka va odatlar yig‘indisi; umumlashgan obrazlar to‘plami, grammatik termin, fenominal xotirali shaxs sifati tariqasida* va hokazo.

MUHOKAMA

O‘quv faoliyatining ushbu usulini mustaqil topshiriq bajarishga, ya’ni “*Tafakkur*” tushunchasiga ko‘chirish imkoniyati quyidagi tarzda namoyon bo‘ladi: *tafakkur – bu bilish jarayoni*,

fikr yuritish faoliyati, prognoz qilish, anglashilgan bilimlar, muloqot negizi, grammatik termin, aql sifati, zehni o'tkirlik, shaxs sifati kabi tasavvur qilish mumkinligini ta'kidlab o'tiladi.

Yuqoridagi mulohazalarga qaramasdan, o'quvchilar tafakkurida sub'ektiv-shaxsiy xususiyatga ega bo'lgan zaif jihatlar mavjuddir. Fikr yuritish faoliyatini nazorat qilishda qator kamchiliklarga yo'l qo'yiladi, masalan, faoliyat natijasini tekshirish sifatidagina qo'llaniladi. Ularning aqliy faoliyatida xatti-harakat yoki bilim sifatini baholash va o'z-o'zini baholashda ham, voqelikni baholashda ham voqelikni oqilona, to'g'ri aks ettirish jarayonida illatlar ko'zga tashlanadi. Narsa va hodisalar xususiyati yoki qonuniyati ko'pincha orttirib baholanadi, ba'zan pasaytirib baholash hollari ham namoyon bo'ladi. Ahyon-ahyonda bo'lsa-da, to'g'ri, oqil, haqiqatan aniq baholash ko'zga tashlanadi. Tafakkurning tanqidiylik va tashabbuskorlik sifatlarida ayrim nuqsonlar uchraydi. O'quvchilarning intilishi bilan o'z-o'zini baholash o'rtasidagi munosabat mutanosiblikka, o'zaro uyg'unlikka ega emas, shu tufayli imkoniyat (aqliy zaxira) bilan havoiiy orzular orasida ziddiyat vujudga keladi, natijada oqillik o'rnini g'ayirlik egallay boshlaydi. Bunday salbiy hissiy kechinmaning, shaxs illatining oldini olish va mutlaqo bartaraf qilish uchun maxsus treningdan (*to'g'ri yo'lga yetaklovchi mashq-namunalardan*) foydalanish ijobiy natijalar beradi.

Ta'kidlab o'tilgan nuqsonlar, qusurlarga qaramasdan, o'quvchilar tafakkuri ilk o'spirinlik yosh davridan ham sifat, ham mazmun, ham ko'lam jihatidan keskin tafovutlanadi. Bu fikrlar psixologlar tomonidan to'plangan miqdoriy ma'lumotlar bilan allaqachonlar tasdiqlangan. Shunday qilib, muayyan bir sohaning yosh mutaxassis kishisi – O'quvchi yuksak aql-zakovat egasi, uquvli-teran fikrli inson, iymonli, diyonatli shaxs, aniq dunyoqarashga; mustahkam e'tiqodga ega bo'lgan ziyoli, milliy mafkuraning jonkuyari, targ'ibotchisi sifatida ijtimoiy katta hayotga yo'llanma oladi.

O'quvchi-o'spirinlik, ilk yoshlik davri o'zining mahsuldorligi, reflektiv (*anglashilganlik, ongli rejalashtira olishlik*) xususiyati bilan boshqa yosh davridagi odamlardan o'ziga xos ravishda ajralib turadi. O'quvchilik yillari ijodiy izlanishlar, aql-zakovat zaxiralarini ishga sola bilish, aqliy qobiliyatni safarbar qilish imkoniyatlariga ega bo'lgan shaxsning yetuklik davri hisoblanadi. Xullas, ushbu yosh davrda tafakkur sermahsul, sermazmun bosqichga ko'tarilib, yaratish, ixtiro, ijod va kashfiyot qilish arafasida turadi.

XULOSA

O'quvchilar o'quv predmetlari, fan asoslarini egallash faoliyatida ijodiy mahsulot berish uchun tinimsiz harakat



qiladilar. Ularning bilishga, bilim olishga undovchi mayllari turg'un, mustahkam va barqaror qiziqishga aylana boradi, badiiy ijodiyot va ilmiy-tadqiqot bobida dastlabki ezgu-niyatlari, orzularini ushatishga intiladilar. Jumladan, adabiy ta'limda o'quvchilar badiiy ijod bilan, tabiiy-matematika fan sohasidagilar esa kuzatish va tajriba o'tkazish bilan, tarixchi-arxeolog o'quvchilar ijtimoiy turmush solnomalarini ochish bilan shug'ullana boshlaydilar. Hatto o'quvchilar o'zlarining aqliy mehnati mahsullari bilan olimpiada, ilmiy-amaliy anjumanlarda, ixtirochilar va ratsionalizatorlar konkurs-tanlovlarida muvaffaqiyatli qatnasha oladilar. Bularning barchasi tafakkur yordami bilan chiqariladi, moddiy borliqni yanada aniqroq ifodalash, yaratish faoliyatlarida faol qatnashish uchun intilish, muammoli holat va vaziyatlarni hal qilish (echish) jarayonlarining mahsuli sifatida namoyon bo'ladi. Bu va standart bo'lmagan muammoli, boshqotirar topshiriqlarni yechish ijodiy fikr yuritishni, sermahsul vositalardan foydalanishni taqozo qiladi.

Umumiy o'rta maktabda o'zlashtirilgan nazariy bilimlarni o'zlashtirish, targ'ib qilish ham o'quvchilik davriga xos xususiyatlardan biridir. Nazariy va amaliy, ijodiy va diskursiv, fazoviy tafakkur bilan qurollangan o'quvchilar omma o'rtasida ilm-ma'rifatni yoyish ishida faol ishtirok qilmoqdalar.

Shunday qilib, o'quvchilar narsa va hodisalar, voqelikni to'g'ri, oqilona, omilkorlik bilan aks ettirish, ijtimoiy hayot talabi va ehtiyojlarini anglash, ongli ravishda fikr yuritish faoliyatini tashkil qilish va boshqarish imkoniyatiga egadirlar. Ularda ta'lim jarayonida tafakkurning *diskursiv* (lot. – *mulohaza yuritish*) va *refleksiv* sifatlarini shakllantirish ilmiy, ijodiy tafakkurni vujudga keltiradi. Buning uchun ularni mustaqil bilim olish faoliyatini to'g'ri uyushtirish va boshqarishga o'rgatish yuksak samaraning kafolatidir.

REFERENCES

1. Avlaev O. U. Talabalar kamolotida ijtimoiy intellektning gender farqlari. "Psixologiya" ilmiy jurnal. 2021. № 1, 34-41 betlar.
2. Avlaev O., Butaeva U. Shaxs kamolotining psixologik determinant. Xalq ta'limi ilmiy-metodik jurnali. 2021. № 6, 87-92 betlar.
3. Sherzod Ibroim Ogli Ibroimov, & Maxina Anarbayevna Usmanova (2021). GEOGRAFIYANI O'QITISHDA OG'ZAKI BAYON QILISH METODLARI. Academic research in educational sciences, 2 (10), 961-970.
4. Sherzod Ibroim Ogli Ibroimov, & Munisa Maxkambayevna Fatxullayeva (2021). MAKTABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI BOLALARNI TABIAT BILAN TANISHTIRISH. Academic research in educational sciences, 2 (10), 1148-1157.



Иброимов, Ш. И. Ў. Амударё ҳозирги дельтасининг рельеф структураси ва мелиоратив тадбирлар / Ш. И. Ў. Иброимов // Экономика и социум. – 2021. – No 4-2(83). – P. 1115-1119. – EDN OPOOVD.

5. Barduhn, S. (2014). Developing cross-cultural awareness in the monolingual classroom. Teaching English, British Council, BBC. <https://www.teachingenglish.org.uk/article/developing-cross-cultural-awareness-monolingual-classroom>

6. Butaeva U., Avlaev O., Abdumannotova N. Scientific and practical studies of psychological maturity of students./ Journal of critical reviews. JCR. 2020; 7(12): 3063-3070 doi: [10.31838/jcr.07.12.463](https://doi.org/10.31838/jcr.07.12.463)

7. Burkhanov A., Avlaev O., Abdusalilova Sh. Responsibility as a criterion for determining personal maturity/ E3S Web of Conferences 2021.

8. Urazbaev A.K., Rajabov F.T., Ibroimov Sh.I. (2022), Methodological basis for using the relief plastic method in studying natural and economic systems of reservoir basins, Central Asian journal of the geographical researches, No 1-2, pp. 29-36.

